

## YEVROPA MUMTOZ MUSIQASINING RIVOJLANISH TARIXI

**Qo'nisheva Irodaxon Murodjon qizi.**

*Umum ta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Yevropa mamalakatlarida tug'ilib o'sgan, kompazitorlar va ushbu mamlakatlar xalqlari musiqa madaniyati, an'analari negizida shakllangan, yoki ushbu kompazitorlar tomonidan mukammal shaklga keltirilgan janrlar – kantata, simfoniya, oratoriya, syuita, poema, ballada, balet, opera, uvertyura, sonata kabi ko'p ovozlilik xususiyatiga ega janrlar va ularga xos ilk namunalar o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Bu janrlarda asarlar yaratishning qoidalari ham o'sha davrlardan shakllanib, hozirgi davrda yuksak rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kompazitor, klassika, Yevropa mumtoz musiqasi*

Musiqada “mumtoz”, ya'ni, “klassika” tushunchasi dastlab Yevropa xalqlarining buyuk kompazitorlari ijodiga nisbatan baho berib, qo'llanilgan edi. Keyinchalik esa “klassika” atamasi jahonning ko'plab xalqlari madaniyati, adabiyotida yaratilgan, davr va vaqt sinovidan o'tgan, ko'pchilik, keng xalq ommasi tomonidan tan olingan, e'tirof etilgan ijod namunalariga ham qo'llaniladigan bo'ldi. Shu singari o'zbek musiqasi san'atida ham xalqimizning milliy qadriyatlariga aylanib ulgurgan xalq ashulalari (mumtoz deb ataluvchi qo'shiqlar), katta ashula, dostonlar va maqomlar (Shashmaqom, Xorazm maqomi, Toshkent – Farg'ona maqom yo'llari) hamda ular ta'sirida yaratilgan kuy – qo'shiqlar, ya'ni og'zaki an'anadagi professional janrlardagi asarlarga nisbatan qo'llanila boshlandi.

Darhaqiqat Shashmaqomning qaysi bir shu'basini, xalq orasida og'zaki an'anada avloddan – avlodga o'tib kelayotgan xalq ashulalari (ushshoq, bayotlar, suvoralar, tanovarlar, katta ashulalar) ni tinglamaylik ulardagi chuqur falsafiy g'oyalarni yorqin kuy – ohang va mukammal ijrochilik usullari, she'riy matnlar ko'plab bastakor va kompazitorlarimiz uchun ijod maktabi sifatida xizmat qilib yangidan – yangi “mumtoz asarlar” yaratilishi ilhom manbai bo'lib xizmat qilib kelinayotganligiga ishonch hosil qilamiz.

O'zbek mumtoz musiqasi san'atining gultoji bo'lgan “Shashmaqom” ning mumtozlik darajasini shundan ham bilsa bo'ladiki, juda ko'p asrlik tarixiy rivojlanish bosqichlarida mukammallashib, ushbu yo'nalishdagi ko'plab asarlarni yaratilishiga sabab bo'lib kelgan. Shashmaqomning yana bir xususiyati u ikki xalq – o'zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyatida mushtarak tarzda o'lkan ma'naviy boylik bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga Shashmaqomni juda ko'plab qardosh va chet ellarda katta qiziqish bilan o'rganishga intilishi kuchayib bormoqda. Buning natijasida Samarqand va respublikamizning boshqa shaharlarida maqomlarga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar, simpoziumlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Hozirgi davrda professional musiqa bilan birga musiqa folklori (o'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari) ning nodir namunalariga nisbatan ham mumtoz so'zi ishlatiladigan bo'ldi.

“Klassika” atamasining negizi lotincha “klassikus” so'zidan olingan bo'lib, “namunaviy”, “yetuk”, “tan olingan” degan ma'nolarni anglatadi.

Mumtoz adabiyot singari mumtoz musiqa asarlarida ham umumbashariy g'oyalar,

mukammal shakllar orqali badiiy ifoda etiladi. Jahon halqlari madaniyatidan munosib o'rin olgan, ijodi dunyo miqyosida e'tirof etilgan, asarlari umuminsoniy ma'naviy boylikka aylangan Yevropaning bir qator kompazitorlari – I.S.Bax, I. Gaydin, V.A. Mosart, L. V. Betxoven, Dj. Verdi, F. Shopen, Shubert, F. List, P. I. Chaykovskiy, M. I. Glinka, R. M. Rimskiy- Korsakov, nisbatan keyingi asrda yashab ijod qilgan S. Prokofyev, D. Shostakovich, A. I. Xachaturyan va yana ko'plab kompazitorlarning buyuk asarlari o'zining badiiy betakrorligi va umumbashariy g'oyalari, nihoyatda yuksak ijod namunasi sifatidagi xususiyati bilan jahonmusiqa madaniyatining oltin xazinasidan mustahkam o'rin olgan. Zeroki, ularning asarlarida oliy insonparvarlik g'oyalari, inson qadriyati, uning erkinlik va baxt – saodati yo'lidagi kurashi, xalqlar do'stligi va birodarligi, bashariyatni baxtiyor qilishga da'vat, sof muhabbat eng oliy pardalarda kuylanadi.

Binobarin klassik kompazitorlar sifatida e'tirof etilgan ijodkorlar va ular tomonidan yaratilgan asarlar yillar, asrlar o'tishi bilan eskirib, o'z qiymatini yo'qotadi degan fikrlar asossiz ekanligini hayot ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida Yevropa mumtoz kompazitorlari ijodi bo'yicha o'tkazilayotgan tanlovlar, festivallar, musiqiy haftaliklar, asarlari dunyoning eng katta teatrlari repertuaridan tushmay muxlisleri tobora ortib borayotganligi buning isbotidir. Nomi qayd etilgan kompazitorlarning asarlari o'zida mujassam etgan yuksak g'oyaviy mazmun va betakror jozibasi, go'zalligi bilan doimo insoniyat baxt-saodati yo'lida xizmat qilaveradi.

Mumtoz asarlar har bir xalq madaniyatida mavjud. Shunday bo'lsa – da, Yevropa mumtoz musiqasi o'zining keng ko'lami, jahon xalqlari musiqasiga ijobiy ta'siri bilan alohida mavqyega egadir. I.S.Bax, L.V.Betxoven, V.A.Mosart, Dj. Verdi va ular qatorida turuvchi ko'plab kompazitorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlari chuqur mazmun va murakkab tuzilishga ega bo'lsa – da, ammo badiiy yetukligi tufayli oson idrok etiladi. Ular shunday bir boy xazinaki, ulardagi musiqiy matnni tinglagansari yana tinglaging kelaveradi, har bir qayta tinglanganda esa uning yangi – yangi badiiy qirralari kashf etiladi.

Ko'pincha mumtoz musiqa asarlari mumtoz adabiyot bilan uyg'unlikda vujudga keladi. Shunga qaramay musiqaning o'zi tarjimasiz ham idrok etilaveradi.

Yevropa mamalakatlarida tug'ilib o'sgan, kompazitorlar va ushbu mamlakatlar xalqlari musiqa madaniyati, an'analari negizida shakllangan, yoki ushbu kompazitorlar tomonidan mukammal shaklga keltirilgan janrlar – kantata, simfoniya, oratoriya, syuita, poema, ballada, balet, opera, uvertyura, sonata kabi ko'p ovozlilik xususiyatiga ega janrlar va ularga xos ilk namunalar o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Bu janrlarda asarlar yaratishning qoidalari ham o'sha davrlardan shakllanib, hozirgi davrda yuksak rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilgan.

Masalan, hozirgi vaqtda deyarli u kirib bormagan mamlakat, xalqni ko'rsatish qiyin bo'lgan, eng yirik hajmli va eng murakkab janr hisoblanuvchi opera san'ati, uning ilk namunalari XIV asarning oxirlarida Italiyada paydo bo'lgan. Opera janrining rivojlanish taraqqiyotida uning tarixiy qahramonlik, tarixiy romantik, epik, afsonaviy, lirik, dramatik, hajviy, ertak – tomoshalar mavzularda yozilgan turlari shakllangan, ularning mumtoz namunaviy turlari DjuzeppeVerdi, X. Glyuk, V.A. Mosart kabi kompazitorlar tomonidan yaratilgan.

Kantata va oratoriya janrlari esa deyarli opera bilan bir davrda paydo bo'lgan. Kantata va oratoriya tuzilishiga ko'ra ko'p qismli, yakkaxon, xor va orkestr (simfonik

orquestr, chunki bu janrlar vokal – simfonik janrlar sifatida ham tasnif qilinadi) ijrosi uchun mo'ljallab yozilishi bilan harakterlanadi.

Balet – fransuzchadan olingan bo'lib, “raqs tushaman, o'ynayman” degan ma'nolarni anglatadi. Fransuz kompazitorlari J.B. Lyulli bu janrda ilk namunalarni yaratib, turli raqs kuylaridan, o'lchovlardan (usullardan) foydalangan. U o'z navbatida ushbu janrning asoschisi sifatida ham e'tirof etiladi. Balet janri (san'ati) keyinchalik, ayniqsa XIX va XX – asrlarda rus klassik kompazitorlar ijodi orqali nihoyatda yuqori yuksakliklarga ko'tariladi va uning klassik namunalari hozirgi kunda ham jahonning eng mashhur teatrlari repertuarini bezab turibdi desak xato bo'lmaydi. Bu o'rinda P.I. Chaykovskiyning “Oqqush ko'li”, “Rusalka”, I.A. Xachaturiyanning “Spartak”, kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Simfoniya musiqasi XVIII asarlarga kelib paydo bo'lgan, tez orada yirik va murakkab musiqa janri sifatida butun dunyoga tarqalgan. V.A. Mosart, L. V. Betxoven, F.Shubert, P. I. Chaykovskiy, P. Borodin, XX asrda ijod qilgan D.B. Shostakovich kabi dunyo tan olgan kompazitorlar simfoniya janrining mumtoz namunalarni yaratganlar. Ularning asarlari dunyo xalqlarining muqaddas ma'naviy merosi sifatida hanuz qadr – qimmatini yo'qotmay eng oliy o'rinlarda ijro etib kelinmoqda.

Yevropa mumtoz musiqasida “sonata”, “ballada”, “prelyudiya”, “Rondo”, “konsert”, “variasiya”, “etyud”, “oda”, “oratoriya”, “opera”, “balet”, “syuita” kabi o'nlab musiqa janrlari XVII – XVIII – asrlarda paydo bo'ladi va tez fursatda olam bo'ylab tarqaldi. V.A. Mosart, Iosif Gaydn, G. Gendel, Berlioz, L.Betxoven, G. Glyuk kabi ko'plab kompazitorlar bu janrlarning yuksak namunalarni yaratdilar. Ularning aksariyat ko'pchiligi dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlarida o'quv darslik, dasturlaridan, professional jamoalari repertuaridan joy olgan.

Yevropa mumtoz musiqasi haqidagi ma'lumotlarda organ cholg'u musiqasi alohida o'rin tutishi ta'kidlanadi. Bu yirik va havo yordamida chalinadigan, klavishli cholg'u sozi paydo bo'lishi Cherkov musiqa ijodiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buyuk kompazitor I.S. Bax, I. Gendel kabilar organ musiqa ijrosi uchun ajoyib asarlar yaratishgan. Yevropa mumtoz musiqasiga oid to'xtalib o'tilgan janrlar o'zbek, qolaversa O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyatiga XX asrda kirib kela boshladi. Yevropa musiqa madaniyati ta'sirida O'zbekistonda kompazitorlik musiqasi tez rivojlanadi. 1936 yilda Toshkentda 1 – o'zbek davlat Konservatoriyasi ish boshladi, dastlabki paytda bu yerga Rossiyaning markaziy shaharlaridan yetuk kompazitorlar, musiqashunos, nazariyotchi olimlar kelib, o'zbek operasi, simfoniya, baletlarining yaratilishiga salmoqli hissalarini qo'shishdi. Tez orada o'zbek milliy operasi, balet, simfonik janrdagi asarlari paydo bo'ldi, zabardast o'zbek milliy kompazitorlarining yirik avlodi shakllandi, bugungi kunda o'zbek kompazitorlari ham Yevropada shakllanib, butun dunyo uzra keng tarqalgan janrlarda yetuk asarlar yaratib kelishmoqda.

Tadqiqot ishimiz mavzusini dolzarbligini asoslashda umumta'lim maktablarining “musiqamadaniyati” 6 – sinf darsligiga kiritilgan “Yevropa musiqasi bilan tanishuv” mavzusi bo'yicha o'quv yili IV choragidagi juda sinqiq va umumiy tarzda ma'lumotlarga o'rin berilganligini aytib o'tgan edik. Haqiqatdan ham Yevropa mumtoz musiqasi, uning buyuk kompazitorlari, yetakchi janrlarida yaratilgan “mumtoz” (klassik) asarlar haqida tegishli bilim, tushunchalarni o'quvchilarga yetkazish imkoniyati nihoyatda

cheklanganligiga amin bo'lamiz. "Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha" mavzusida beriladigan ma'lumotlar va o'quv materiallari uchun (Ivchorak uchun) bor – yo'g'i 9 soat hajmida o'quv soati ajratilgan. Fanning Davlat standarti va o'quv dasturida esa "Yevropa mumtoz musiqasi" bo'yicha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, malakalarning mezoniy talablari esa aksincha belgilanganidan ko'p soat va o'quv materiallarini talab qiladi. Oltinchi sinfda o'quvchilar bilim va malakalar mezoniga umumiy holda quyidagicha ta'rif berilgan:

O'quvchilar O'zbekiston sarhadida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'alariga ega ekanligi hamda ularning o'zaro o'xshash va o'ziga xosligi haqida tushunchalarga ega bo'lishlari lozim.

O'quvchilar o'quv yili davomida mumtoz musiqa ijodiyoti, bastakorlik, ijro va ijod sohalarining mushtarakligini ta'minlovchi ijodkorlik namunasi ekanligi va qadimiy – amaliy an'alarining yangi zamonaviy sharoitda davom ettirilishidan xabardor bo'lishlari, bunda usul va kuy omillarining yetakchi badiiy ifoda vositasi ekanligiga e'tibor berishlari, bastakorlik ijodida mahalliy musiqa an'alarining badiiy yuksaklik kasb etishini, kompazitorlik ijodining yetuk namunalarida milliy musiqa, lad ohanglari va bastakorlik an'alarining badiiy mujassam ekanligini bilishlari lozim.

Sharq xalqlari mumtoz musiqa madaniyatida mohiyatan o'zaro o'xshash ijod turlari mavjudligi, musiqa san'atining bu xalqlarning ma'naviy hayotida tutgano'rni, cholg'u sozlarining turdoshligi, ijrochilik san'atidagi o'xshash mavqeyi, aksariyat musiqiy janrlar, ijrochilik uslublari, musiqiy atamalarning mohiyati va nomlanishidagi umumiylikdan (masalan, maqom, mug'om, muqom, rubob, rebob, ud – ad, g'ijjak, kamoncha, doira – daf, surnay–zarna, tanbur – tambur, dutor, setor, chotor, dumbira va boshqalar) ma'lum tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

Yevropa mumtoz musiqasining nota yozuvi an'anasiga bog'liq kamol topganligini, G'arbiy Yevropa professional musiqa san'atida mumtoz (klassik) musiqa iborasining qo'llanilish ko'lamini bilishlari lozim.

O'quvchilar Yevropa kompazitorlik ijodida shakllangan janrlar – romans, kantata, syuita, poema, oda, simfoniya, oratoriya, sonata, variyasiya, opera, balet va shuningdek, vokal simfonik janrlar (qo'shiq, romans, oratoriya) ning tavsiflari (band – naqorat, siklli, romans – lirik xarakterli va shaklan rivojlangan, ariya – opera qahramonlarining ichki – ruhiy kechinmalarini ifoda etuvchi rivojlangan vokal asarlari) haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Simfoniya kompazitorlik ijodiyoti mahsulining yirik va murakkab janri hamda ijodning badiiy cho'qqisidir. Simofniya turkumi asosan 4(to'rt) qismli bo'lishi va bu qismlarning turli jihatlaridan (ijro sur'ati, parda - tonalligi va hokozolar) muayyan farqlanib turuvchi shaklda qurilishi haqida, shuningdek, eng muhimi Yevropa mumtoz musiqasining o'lkan namoyondalari – Bax, Betxoven, Mosart, Shopen, Shubert, Verdi, Gendl, Glyuk, Gaydn, Glinka, Chaykovskiy kabilar, ularning hayoti va ijodi, mumtoz asarlari haqida yetarli bilim, ma'lumotlarga ega bo'lishlari shart.

\*Klassik kompozitorlar ijodi xalq qo'shiqlari bilan chambarchas bog'liq. Rus klassik musiqasining asoschisi M.Glinka shunday degan edi: "musiqani biz emas, balki xalq yaratadi, biz faqat yozib olib, uni aranjirovka qilamiz".

Kompozitorlar musiqiy folklorini diqqat bilan sevib o'rganadilar. Xalq ijodiyoti

bitmas-tuganmas buloq sifatida ulami ajoyib kuylar bilan ta'minlaydi, sujetlar va mavzulami ko'rsatib beradi. Xalq fantaziyasi yaratgan ko'plab badiiy obrazlar kompozitorlar ijodida yangidan yashay boshladi. Xalq ertaklari va afsonalaridan Qor qiz va Zolushka, Sadko va Lei, o'lmas Kashchey va Baba-Yaga musiqaga kirib keldilar. Musiqa cholg'ulari ham xalq ichidan chiqib kelgan. Xalq musiqachilari ijro etgan cho'pon naylari va sibizg'alari, shoh va gusli, turli zarbli cholg'ular qo'li gul ustalarning qayta ishlashlari tufayli zamonaviy goboy va fleyta, valtooma va arfa, skripka va violonchellarga aylandi.

Ammo kompozitorlarni, ayniqsa, xalq qo'shiqlari va raqslarining boy xazinasini bo'lmish xalqning musiqiy tili qiziqtirib kelgan. Yozuvchi va shoirlar xalq og'zaki ijodidan foydalanganliklari kabi, unga kompozitorlar doimo murojaat qilishgan. Rus musiqasida kompozitorlarning xalq ijodi bilan aloqasi ko'proq ko'zga tashlanadi. M.Glinka, A.Dargomijskiy, A.Borodin, M.Musorgskiy, N.Rimskiy-Korsakov va P.Chaykovskiyning ijodi xalq qo'shig'i bilan bo'lgan aloqasiz bunday yuqori cho'qqiga erishmagan bo'lardi. Xalq qo'shiqlarida xalqning qahramonona tarixi va uning kundalik hayoti, baxtli hayot haqidagi dil orzulari aks etadi.

Rus xalq qo'shiqlari orasida mehnat va bayram, xorovod va raqsonga qo'shiqlar, to'y-tomosha va og'ir aytiladigan qo'shiqlar, rekrut (askar) qo'shiqlari, shahar qo'shiqlari va chastushkalar mavjud. Xalq ijodining musiqiy poezia turiga, qo'shiqlardan tashqari muayyan kuyga ega bo'lgan hamda qo'shiq kabi aytiladigan qadimgi afsonalarni ham kiritishadi. Kompozitorlar xalq qo'shiqlari kuylarini yozib olib, qayta ishlab, ularni o'rganadilar. Ular tomonidan tuzilgan to'plamlar havaskor va professional musiqachilar orasida tarqalib ketardi. Kompozitorlar xalq kuylarini yozib olib, ularni qayta ishlab, xalq san'atining butun go'zalligi va o'ziga xosligini saqlab qolishga erishdilar. M.Balakirev, N.Rimskiy-Korsakov, P.Chaykovskiy va A.Lyadov kabi kompozitorlar qayta ishlagan xalq qo'shiqlari to'plamlari eng taniqli hisoblanadi. Musiqa bizning hayotimizda muhim o'rin egallaydi. U hamma yerda: radio va televideniye eshittirish va ko'rsatuvlarida, teatr va konsert zallarida, bayram tadbirlari o'tadigan maydonlarda, maktablarda jaranglaydi. Mamlakatimizdagi bayramlarning hech biri musiqasiz o'tmaydi. Qo'shiqlar, raqslar, marshlar- bayramlarning doimiy yo'ldoshi. Har yili Navro'z, Mustaqillik bayramlarida respublikamizning barcha shaharlaridagi bosh maydonlarda katta konsert tomoshalari o'tkazilib, ularda o'zbek milliy kuy-qo'shiqlari bilan birgalikda zamonaviy estrada musiqasi asarlari hamda boshqa xalqlarning kuy-qo'shiqlari mashhur san'at ustalari va havaskorlar tomonidan ijro etiladi.

Odamlar hayotidagi ko'plab voqealar musiqasi bilan bog'liq. Sokin alia ohanglari ostida yosh go'dak uxlab qoladi. Quvnoq musiqasi sadolari jo'rligida bolalar o'ynaydilar. Maktab o'quvchilari qo'shiqlar o'rganadilar, marsh sadolari ostida sayohatlarga o'tlanadilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Taruskin R., Gibbs Chr. The Oxford history of Western music / College ed. N.-Y.; Oxford: Oxford University Press, [2013]. XXXIII, 1212 p.
2. Taruskin R. The Oxford history of Western music: in 6 vol. Oxford: Oxford

University Press, 2005. 4272 p.

3. Акопян Л. Взгляд на русскую музыку (Рец. на кн.: Taruskin R. On Russian Music. Berkeley; Los Angeles; London: University of California Press, 2009. 407 p.) // Музыкальная академия. 2009. № 3. С. 129-132.

4. The new Oxford history of music. Vol. 1-10. Oxford: Oxford University press, 1954-2001.

5. Манулкина О. Ричард Тарускин: «Я привык к негативным комментариям» // Музыка академическая. Архив. Open-Space.ru. 11 ноя. 2011. URL: [http://os.colta.ru/music\\_classic/events/details/31783/](http://os.colta.ru/music_classic/events/details/31783/) (дата обращения: 11.11.2011).

6. Oxford anthology of Western music. Vol. 1. The earliest notations to the early eighteenth century / eds D. J. Rothenberg, R. R. Holzer. N.-Y.; Oxford: Oxford University press, [2013]. X, 534 p.

7. Oxford anthology of Western music. Vol. 2. The mid-eighteenth century to the late nineteenth century / eds K. Moricz, D. Schneider. N.-Y.; Oxford: Oxford University press, [2013]. XI, 802 p.

8. Oxford anthology of Western music. Vol. 3. The twentieth century / eds K. Moricz, D. Schneider. N.-Y.; Oxford: Oxford University press, [2013]. XI, 604 p.

9. Oxford recorded anthology of Western music. Concise edition. 3 compact discs of MP3 files to accompany The Oxford history of Western music; College ed. Oxford University press. 190 tracks; 14 hours and 52 minutes of music on three discs.